

QO'CHQOR NORQOBIL IJODIDA RUHIY HOLAT MASALASI

Abdurahimova Manzura Shokirjon qizi

FarDU, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya Maqolada psixofiziologik holat masalasi yozuvchi Qo'chqor Norqobil qissalari misolida tadqiq etilgan.

Аннотация: В статье рассматривается вопрос психофизиологических состояний на основе теорий литературоведов.

Abstract: The article examines the issue of psychophysiological conditions based on the theories of literary scholars.

Kalit so'zlar: psixologiya, psixofiziologiya, jest, mimika, gallyutsinatsiya, obraz, ruhiyat.

Ключевые слова: психология, психофизиология, жест, мимика, галлюцинация, образ, психика.

Keywords: psychology, psychophysiology, gesture, facial expressions, hallucinations, image, psyche.

Badiiy asarda qahramonning xarakter qirralari xilma-xil bo'lganidek, uning ruhiy olamini ochuvchi "portret, monolog, dialog, tush, psixologik timsollar, peyzaj, galyutsinatsiya kabi poetik vositalari ham rang-barangdir. Mazkur vositalar orqali adibning psixologik tahlil mahorati sirlari ochiladi. Olimlar tomonidan o'zbek nasri 80-90- yillarda turli o'zgarishlarga uchragani ta'kidlab o'tiladi. Jumladan, Tilavoldi Jo'raev "Ong oqimi va tasviriylik" risolasida 80-90-yillarga kelib, o'zbek nasri qamrovi kengayganligi, tahlil maydoni, shakli, mazmuni, qolaversa, maqsadlarining yangi jihatlari yuzaga kelganligini ta'kidlab, "ruhiyat tahlili badiiy nasrning asosiy sifat belgisi, badiiylik mezoniga aylandi"¹⁹deb yozadi. Bu kabi tasvir vositalari urush mavzusida yozilgan asarlarda aniq ko'rinib turadi. .

Zamonaviy o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Qo'chqor Norqobil sanaladi. Uning urush mavzusidagi qissalarida qahramonlarning ichki kechinmalari ta'sirchan tarzda yoritilgan. Urush ko'rgan adib sifatida o'zi ko'rgan voqealarni haqqoniy va real tasvirlaydi. Adib ijodida qahramonlar ichki dunyosini azob-og'riqlardan iborat psixologik holatlar, o'zaro to'qnashuvlar orqali tasvirlash usuli ko'zga tashlanadi.

Tadqiqotchi Sh. Botirovaning fikricha "Psixologik detallar inson ichki olamini gavdalantiradi. Qalb tebranishlari- fikrni to'liq ayta olmasdan, faqat ishora bilan cheklanish usuli yoki "nutq orqali ifodalanmagan diologga" mansub unsurlar: kinesik holatlar - xatti-harakat, mimika va pantomima elementlari hamda, kulgi, yig'i, nutq

¹⁹ Jo'raev T. Ong oqimi va tasviriylik – Toshkent: Fan, 1994, 3- b.

tempi kabi paralingivistik elementlar psixologik detal shaklini ifodalaydi yoki personaj dinamik portretining detallari(mimika, plastika, ma'noli harakatlar, tinglovchiga qaratilgan nutq, fiziologik o'zgarishlar) deya nomlanadi.²⁰ Yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda shuni aytish mumkinki, fiziologik o'zgarishlar qahramon ruhiyatini kitobxon ko'z oldida qahramon nutqiga qaraganda yaqqolroq ko'rsatib beradi. Bunday psixofizologik tasvir vositasi badiiy asar tahlilida muhim o'ringa ega deb hisoblaymiz.

Adib asarlarida urushni tasvirlash jarayonidagi holatlar shu qadar tasirliki, uni o'qish jarayonida o'quvchining hissiyotga berilmasligi imkonsiz. Qo'chqor Norqobil shaxsan o'zi urushda qatnashganligi uchun uning asarlari jonli, real va butun tasvir aynan hayotiy bo'lganligi sababli kitobxonlarni qiziqtiradi. Urush maydonida qon kechgan ijodkor uchun aynan shu mavzuda asar yozish, go'yoki urushni qayta boshdan kechirgan bilan barobar. Ushbu mavzuda asar yozish unga qanday ta'sir qilganligi haqida unga savol berilganda, u dastlab "Daryo ostidagi yig'i" asarini urushdan qaytgan yili yozganini, ammo davom ettira olmaganini aytadi. Dastlabki yozganlari oxiriga yetkizilmagani va deyarli bir yil davomida yoza olmaganini eslab o'tadi. Ammo ichida kechayotgan og'riqlar va alamlar uni yozishga undaydi.

Adibning "Osmon ostidagi sir" qissasi ham o'tkir drammatizmga boy syujeti bilan adabiyotshunoslar e'tiborini qozongan asardir. Yozuvchining bu qissasida quyidagi parcha uchraydi:

– Xullas, oshna, shu qizing Xayrinisoni To'lqinimga kelin qilsak. Endi bu yog'i ikkoviga ham o'zing otalik qilsang. Uzangi yo'ldosh oshnachiligimiz hurmati, iltimos qilaman, so'zimni yerda qoldirma, To'ychi oshna!

- To'ychi polvon biroz kalovlanib turdi-da, xo'p ma'nosida bosh irg'ab, rizolik bildirdi.²¹

O'zbek xalqida farzandlar oila qurish ota-onalar belgilab qo'yish holatlar juda ko'p uchraydi. Bu holat yaxshilik bilan tugab, ota onalar belgilagan taqdir bilan oila qilib, baxtli bo'lib ketganlar ko'plab topiladi, bizning qissamiz qahramoni Xayrinisoni Rahim polvon o'z o'g'liga so'raydi. Qadrdon do'stiga nima deyishni bilmagan To'ychi polvon biroz kalovlanib turdi da, xo'p ma'nosida bosh irg'ab, rizolik berdi. Mana shu "kalovlanish" va "bosh irg'ash" psixofiziologik holatda otaning biroz norozi ekani, farzandi kelajakda baxtli bo'lmasligini ko'ngli sezgandek noiloj rozi bo'lishi yozuvchi tomonidan qahramon ruhiy holatidagi norozilik kayfiyatini uyg'otyapti. Xayriniso To'ychi polvonning yagona farzandi, u qizining taqdiriga befarq emas, lekin qizining ko'nglini ham so'rab o'tirmay, mamnuniyat bilan bo'lmasa-da, do'stining o'g'li To'lqinga berishga rozi bo'ldi.

Afg'on urushi nomini eshitishning o'zi insonni dahshatga soladi, undagi qahramonlar boshidan o'tkazgan voqealarga esa chidib turish qiyin. Afg'on urushi

²⁰ Botirova Sh. Hozirgi o'zbek romanlarida badiiy psixologizm(Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat", "Isyon va itoat", "Sabo va Samandar" romanlari misolida) Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi. Qarshi-2019-B-90

²¹ Norqobil Q. Osmon ostidagi sir: Yoshlik jurnali,,2010,7-son

haqida gap ketganda sevimli yozuvchimiz O'tkir Hoshimovning quyidagi gaplarini esga olish o'rinli. Suhbatlaridan birida yozuvchi bu xususida shunday deydi: "Sho'ro zamoni oxirlab qolgan kezlari edi. Bir tomonda bemaqsad Afg'on urushi boryapti. Ikkinchi yoqda "o'zbek ishi" bahonasida xalqimiz boshida qatag'on qilichi o'ynayapti. Bir kuni Afg'ondan, bir kuni mamlakat ichkarisidan askar yigitlarimizning "temir tobuti" kelib turibdi. Xuddi dahshatli tush kabi..."²² Ana shunday qonli kunlarning guvohi bo'lgan ijodkor Q.Norqobil afg'on urushi tasvirini ichidagi bor dard u alamlarini bilan yozadi. Urush tugagandan keyin ham uning qurbonlari sanoqsiz topiladi. Urushda munosib qahramonliklar ko'rsatib qaytgan To'lqin polvon Xayrinisoga uylanadi, avvaliga ular judayam baxtli yashashadi. Oradan yillar o'tgach baxtlariga yetishmayotgan farzand ne'mati ularni g'amga botira boshlaydi. O'zbek millatida farzandsizlik holatiga fojia sifatida qaraladi. Ularning ko'cha- ko'yda bosh ko'tarib yurishi qiyin bo'lib qoladi. Odamlar tomonidan "yangilik bormi" degan gap qissa qahramonlarini tinkamadorlarini qurita boshlaydi, hatto odamlar To'lqinni urushda pushtini kuydirib kelgan degan gaplar tarqatadi va bu holat yozuvchi tomonidan quyidagicha izohlanadi:

"Gospitaldan chiqadigan kuni palataga davolovchi vrach polkovnik Stonogin kirib keldi. Karavotga yotqizib, obdon ko'rikdan o'tkazdi. Kindigi pastiga, qovug'iga o'rtancha barmog'i bilan urib ko'rди, tumba ustidagi kasallik varaqasini olib sinchiklab ko'zdan kechirdi. To'lqinga "bo'ldi o'tiraver" ishorasini qilib, o'zi ham uning yoniga cho'kdi. Yigitning yelkasiga qo'l tashlab, nigohiga termulib turди, so'ng muhim gapni aytmoqqa shaylanib, lablari pirpiradi... Kuyib-pishib nimalarnidir gapirayotgan polkovnikning so'zlarini o'rischaga shashti past To'lqin unchalik anglab yetmay, **bosh irg'ab** qo'yardi. Yigitning bunchalik bamaylixotir bosh silkitishi polkovnikning ensasini qotirdi, shu bilan birga rahmini keltirdi. Karavot yonida serryayib turgan hamshira yuzini burди, yelkalari silkinib, piqillab yig'lab yubordi. Polkovnik jarangdor ovozdа: "Ну ладно, самый главный ты живой"- dedi.²³

To'lqin bu gapning tagidagi mazmun-mohiyatni anchagacha anglay olmay yurди. So'ng tirikligingga shukur qil, tiriklik hamma narsadan afzaldir, degan ma'noga yo'ydi. Lekin o'sha paytdagi o'zi anglab anglamay "bosh irg'ab" qo'yish holati bir jiddiy narsaga ishora edi. Ushbu psixofiziologik holatda qahramonning ruhiy holatida tushkinlik alomati yaqqol seziladi. Ushbu parchadagi davolovchi vrachning To'lqinga bor gapni ayta olmay, "lablarini pirpirashi" da ham urushning insoniyat boshiga solgan yana bir dahshatini tasvirlagan. Urushda qahramonlik ko'rsatgan qissa qahramoni bu voqealarga unchalik tushunmadi, hatto serryayib turgan hamshira ham bu holatga chiday olmay, yelkalari silkinib, piqillab yig'lab yubordi. Urushda qo'lsiz, oyoqsiz kelsa ham uylanib o'zidan zurriyod qoldirish imkoni bor, ammo To'lqinda bu imkoniyat ham yo'q edi. Bu unga achinish bilan qaragan, lablari pirpirab haqiqatni ayta olmagan vrachdagi psixofiziologik holatda, uning ichki ruhiy olamida urushga nafrat tuyg'usini

²² Hoshimov O'. Tushda kechgan umrlar. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T;2022

²³ Norqobil Q. Osmon ostidagi sir: Yoshlik jurnali;2010,7-son

yana bir karra oshirilganidan dalolat. Hamshira qizning yig'lab yuborishi esa bu holatni yanada jiddiy ekanini ko'rsatmoqda. To'liqin bularning hammasini kegin anglab yetdi, agar o'sha paytda bilganida, urushda o'z jonini qurbon qilishi yoki tirik qolib uyga qaytganda ham Xayrinisoga uylanmagan bo'larmidi. Xayrinisaning onasi esa uni "o'tkir nafasli Ro'zi Maxsum" ga o'qitishni istaydi. Aslida Ro'zi Maxsum axloqsizligi tufayli xotini tomonidan qarg'algan va yolg'iz yashovchi bir kishi edi. Xayrinisa ham o'zi bilmagan holda uning qora niyati qurboniga aylanadi. Homilador ekanini bilgach, eriga bor haqiqatni aytadi. Shundan so'ng To'liqin tank o'zini osib o'ldiradi. Farzandli bo'la olmasligini bilib turgan paytda xotining homiladorman deyishi u uchun ikki karra azob edi. Yigit kishi uchun bundan ortiq dard, bundan ortiq g'am bo'lmasa kerak. Xuddi shunday holat sevimli yozuvchimiz O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" asari qahramoni Rustam taqdirida ham yuz beradi. U ham urush qurboniga aylanadi. Urushdan qaytgach farzandsizlik bilan qiynalib yashaydi. Har ikkala ijodkor asarida ham urush qurboniga aylangan qahramonlar holatiga guvoh bo'lamiz. Yozuvchilarni bu mavzuda asar yozishga majbur qilgan narsa ham urush davri qahramonlarini ruhiy holatini tasvirlash bo'lgan. Ana shu davr voqealarini tasvirlash jarayonida psixofiziologik vositalar yordamga kelgan.

Xulosa qilib aytganda, qahramon ruhiy holati va xarakterini ochib berishda psixofiziologik vositalarining ahamiyati katta ekanligi bugungi kun adabiyotshunolar tomonidan alohida ta'kidlanmoqa. Adib urush mavzusidagi asarlarni shunchaki yozmagan. Yozuvchini o'zi guvoh bo'lgan dahshatli fojealar qiynaydi. Bu holat unga tinchlik bermaydi. Q.Norqobilning urush mavzusidagi qissalari avtobiografik ko'rinishga ega. Shu sababli bu asarlar real voqealar bilan boyitilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo'raev T. Ong oqimi va tasviriylik – Toshkent: Fan, 1994, 3-b
2. Botirova Sh. Hozirgi o'zbek romanlarida badiiy psixologizm(Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat", "Isyon va itoat", "Sabo va Samandar" romanlari misolida) Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi. Qarshi-2019-B-90
3. Norqobil Q. Osmon ostidagi sir: Yoshlik jurnali;,2010,7-son
4. Hoshimov O'. Tushda kechgan umrlar. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T;2022